

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI

Kafedra: Arxitektura tarixi va nazariyasi

**Mavzu: Toshkentning "Chuvalachi ko'chasidagi 25, 25",
27 turar – joy uylar guruhini qayta tiklash va
modernizatsiyalash "
mavzusidagi kompleks ishi**



RAXBAR: Po'latov X.

TALABA: Hasanov B.

TOSHKENT 2014

MUNDARIJA:

Kirish	4 bet
Arxitekturaviy bo'lim:.....	5 bet
1. Toshkent xaqida umumiy malumot	6 bet
2. Qurilish va arxitekturaviy tipalogiyasi.....	
3. Asosiy qisim.....	
• Taklif qilinyotkan loyixa ishi.....	18 bet
<i>Xulosa</i>	
<i>Konstruktiv bo'lim</i>	20 bet
• Bino kanstruksiyasi.....	21 bet
• Qurilish iqtisodiyoti bo'limi.....	35 bet
<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i>	
<i>Ilovalar : chizmalar va foto tasvirlar.....</i>	44 bet

Kirish

Shu munosabat bilan yaqinda Toshkentning Eski shahar qismini 2020 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish va obodonlashtirish bo'yicha alohida hujjat – Prezident qarori qabul qilindi. Bu muhim hujjatda Eski shaharni tubdan rekonstruksiya qilish, yanada rivojlantirish va obodonlashtirish, aholining hayot sifatini oshirish, zamonaviy talablar, shaharsozlik prinsiplari va normalariga muvofiq tarzda ijtimoiy, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini shakllantirish, milliy me'morlik an'analari asrab-avaylashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Jumladan, ikkita g'oyat muhim masalani yechishga alohida e'tibor berilmoqda.

Birinchi masala – Eski shahar hududidagi mavjud ahvol, avvalambor, yo'l-transport kommunikatsiyalarining holati, turar-joy massivlarining ichimlik suvi, kanalizatsiya, issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlanish darajasi zamonaviy talablarga, shaharsozlik va sanitariya normalariga qanchalik javob berishini hisobga olishdan iborat.

Ikkinchi masala – rekonstruksiya ishlarini amalga oshirishda Toshkent shahri, ayniqsa, uning Eski shahar qismidagi milliy me'morchiligimizning o'ziga xos xususiyat va an'analari, xalqimiz madaniy merosining timsoli bo'lgan, islom madaniyati va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylashdan iborat.

Ana shu muhim yo'nalishlar Toshkentni istiqbolda zamonaviy shaharsozlik asosida rivojlantirish va obodonlashtirish dasturi loyihasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qilishi darkor. Ta'kidlash kerakki, bu dastur 2020 yilga qadar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Uning har bir yo'nalishi bo'yicha, mutaxassislar, arxitektor va loyihachilar, tarixchi olimlarni jalb etgan holda, ishchi guruhlar tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Albatta, ana shu ishchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar asosida ishlab chiqiladigan dastur loyihasi keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinadi. Chunki bu o'rinda so'z butun xalqimiz, mamlakatimiz tarixiga, uning milliy qadriyat va an'analariga, ming-minglab yurtdoshlarimizning bugungi va ertangi hayotiga bevosita daxldor bo'lgan masalalar haqida bormoqda.

Eng muhimi, Toshkentning qanday qadimiy va boy o'tmishi borligini, dunyoda 2200 yillik tarixga ega bo'lgan shaharlar barmoq bilan sanarli ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak. Yillar, asrlar o'tsa ham, eski o'rni buzilib ketgan bo'lsa ham, bunday qadimiy shaharlarda odamlar tarixiy xotira tuyg'usini yo'qotmasdan, ko'hna manzil va maskanlarni doimo eslab yuradi. Toshkentning o'n ikki qadimiy darvozasini, ularning Labzak, Qashqar, Qo'qon, Qaytmas, Beshyog'och, Kamolon, Samarqand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasuv va Taxtapul degan nomlarini xalqimiz hozirga qadar yodidan chiqarmasdan kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlab turibdi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, sobiq sovet davrida, ayniqsa, 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan keyin uzoqni o'ylamasdan, palapartish qilingan ishlar tufayli poytaxtimiz rivoji bilan bog'liq ko'pgina muammolar to'planib qolgan edi.

Kaltabinlarcha olib borilgan ishlar tufayli Toshkentning betakror tabiatiga katta zarar yetkazildi, qancha-qancha bog'lar buzilib, ariq va buloqlar ko'milib, ularning o'rnida iqlim sharoitimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga o'xshaydigan ko'pqavatli temir-beton uylar, ishlab chiqarish korxonalari o'ylamay-netmay qurib tashlandi. Yaqin o'tmishdagi ana shunday achchiq tajribalar shundan dalolat beradiki, shaharsozlikda yetti marta emas, yetmish marta o'lchab, bir kesish kerak.



ARXITEKTURAVIY BO'LIM

Konsultant: Ziyaev A.

Raxbar: Po'latov X.

Talaba: Hasanov B.

TOSHKENT TARIXI XVI ASR YOZMA MANBALARIDA

Bugungi kunda mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, xo'jalik va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan Toshkent shahri qadim va o'rta asrlarda ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan. O'z tarixi davomida Toshkent yirik davlat va saltanatlarning markazi sifatida tanlangan bo'lib, turli siyosiy jarayonlarga tortilib turgan. Shuningdek, shahar rivojlanish, tanazzul va qayta tiklanishlarni boshdan kechirganki, bu jihatlar Toshkent tarixining voqeliklarga juda boy va qiziqarli ekanligini ko'rsatadi.

Ko'hna Toshkentning 2200 yillik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi va uni o'rganishda bizga yozma manbalar juda katta yordam beradi. Jumladan, XV-XVI asrga oid hujjatlar shahar tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Toshkentning XV asr oxiri XVI asrning boshlariga oid hujjatlarning ma'lum qismi o'zbek tilida, qolganlari fors tilida bitilgan. Ayrim hujjatlarda Toshkent matn orasida yo'l -yo'lakay tilga olinsa, boshqalarida oliy hukmdorlar tomonidan mahalliy hokimlarga Toshkentning hadya etilganligi yoki Toshkent atrofidagi aholidan soliq to'plash haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Bu kabi hujjatlar kam sonliligiga qaramay, ularda keltirilgan aniq ma'lumotlar shahar va unga yaqin bo'lgan joylar o'tmishni tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Ayrim hujjatlarda Toshkent hokimligiga to'lanadigan soliqlarning nomi haqida aniq ma'lumotlar uchraydi. Masalan, "Maktubod va asnod" qo'lyozma to'plamidagi o'zbek tilida bitilgan hujjatda Shayboniylarga tobe bo'lgan Toshkent aholisidan to'planadigan soliqlar sanab o'tilgan[1]. Bu hujjatda Toshkent va Toshkent viloyatida istiqomat qilgan "turkiy xalqlar va tojiklar", shuningdek, arablar, qarluqlar urug'i qayd etilgan. Shu jumladan, Toshkent hukmdorlari, yirik din arbobi Said Fozil Ali va uning avlodlari nomiga berilgan farmonlarda ko'p sonli soliq va majburiyatlar (ularning umumiy soni to'qsondan oshadi) sanab

o'tilgan. Maskur farmonlarda Toshkent hukmdorlari xazinasiga ularga tobe bo'lgan Axsikent yerlaridan to'plangan soliqlar miqdori (oltin dinorlarda) haqidagi qimmatli hujjatlar, shuningdek, tobe aholining juda og'ir ahvoli haqidagi ma'lumotlar mavjud. Bunga og'ir zulm tufayli o'troq aholining o'z yer-suvlarini tashlab ketganligi haqidagi hujjatlar dalolat beradi. Hatto ayrim hujjatlarda dehqonlarning o'z yerlariga majburan qaytarish haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi[2]. Buxoro xoni Imomquli (1608-1642 yy) nomidan e'lon qilingan farmonda aholidan to'planadigan soliq turlari: dahyak, dahdu, muqarrari, ihrojat, salg'ut, amlok sanab o'tiladi bu soliqlarning aksar qismi mahsulot bilan to'langanligi[3].

Toshkent hokimi Navro'z Ahmadhon (Baraqqhon) nomidan o'zbek tilida bitilgan hujjatlar ham ma'lum miqdorda qiziqish uyg'otadi. Ushbu hujjatlarda Toshkent shahri aholisining ma'lum qismi ham hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlab, ma'lum qismi dehqonchilik bilan shug'ulangani haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Toshkent haqidagi tarqoq, lekin qimmatli ma'lumotlar tarixiy asarlarda ham uchraydi. Bu borada XVI asr 30- yillarining oxirida yozilgan "Badol al-vakol" ayniqsa diqqatga sazovordir. Shuningdek, Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", mua'lifi noma'lum "Tavorihi guziday nusratnoma", Fazlulloh ibn Ruzbehon Isfahoniyning "Mehmnnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixiy Rashidiy", Muhammad ibn Arab Qatog'oniyning "Musahhir Al-Blilat" va boshqa bir qator asarlarda XVI-asr Toshkent tarixi haqidagi qisqa, lekin muhim malumotlar uchraydi. Abdullahon II ning saroy tarixchisi Hofiz Tanish qalamiga mansub bo'lgan "Abdullanoma" XVI asr II yarmida yaratilgan asar hisoblanadi. Mazkur asarda Abdullahon II bilan Navro'z Ahmadhon va uning o'g'illari o'rtasida hukumdorligi uchun olib borilgan shiddatli siyosiy va harbiy kurashlar, jumladan, shaharni qamal qilgan xon qo'shinlaridan Toshkentni himoya qilgan shaharliklar, ularning og'ir ahvoli, shuningdek, shahar qal'asi

devorlarining mustahkamligi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, asarda Toshkenda bo'lib o'tgan xalq g'alayonlari haqida ham ma'lumot beriladi. Xususan, 1588-yili bo'lib o'tgan xalq g'alayoni haqida ma'lumot ayniqsa qimmatlidir.

Eski o'zbek tilida yozilgan hujjatlarning mavjudligi aholining ko'pchilik qismi bu davrda turkiy tilda so'zlashganligidan dalolat beradi. Mir Muhammad Amir Buhoriy o'zining "Ubaydullonoma" nomli asarida Toshkent vohasi aholisi bilan birlashgan qozoq va qoraqalpoq xalqlari haqida to'xtalib o'tadi[4]. Bu ma'lumotlar qator hujjatlarda, shuningdek, Fazlulloh ibn Ruzbehon Isfahoniyning "Mehmonomaiy Buhoro" asarida qayd etilgan hamda Toshkent va uning atrofida yashagan xalqlar va qabilalar haqidagi ma'lumotlarni to'ldiradi. Mir Muhammad Amin Buhoriyning yozishicha Toshkentning shahar devorlari dushman hujum qilgan vaqtda qo'shni aholilarni ham muhofaza qilishda mustahkam istehkom hisoblangan. Jumladan, "qozoq va qoraqolpoq urug'lari qalmoqlarning son-sanoqsiz qo'shinlari oldida qo'rqanlaridan azaldan yashab kelgan joylarini tashlab Toshkent istehkomida himoya topadilar"[5]. Turli xalqlar mehnatkash aholisi vakillarining birgalikda shahar himoyasi uchun kurashi haqida "Dastur al-muluk"da Hoja Samandar Termiziy ham ma'lumot bergan[6]. Bundan tashqari, Muhammad Yusuf Munshiy mashhur "Tarixi Muqimhon" asarida Toshkentni qamal qilgan dushmanlarga zarba berishni tashkil qilish, toshkentliklarning bosqinchi xon tomonidan qo'yilgan xukmdorlarni jazolashi va o'z navbatida, Buxoro xoni Imomqulixonning kurash olib borgan mehnatkashlarni vahshiyona jazolashi haqida hikoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tilga olingan yozma manbalar Toshkent shahrining XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ko'hna Toshkent darvozalari

Dunyoda shaharlar ko'p - Rim, London, Moskva, Istanbul, Tehron, Madrid, Dushanbe, Nyu-York, Toshkent... Ularning ro'yxatini yana ancha davom ettirish mumkin. Bu shaharlarga turli xil ma'nolarni anglatuvchi ta'riflar berilgan. Rim - modalar shahri, London - tumanlar shahri, Parij - go'zallar shahri, Lissabon - dengizchilar shahri... Vatanimiz poytaxti Toshkentni esa non shahri yoki devorlar qurshovidagi shahar deya e'tirof etishadi.

Toshkent qadimiy tarixga ega bo'lib, u o'tgan davr mobaynida ko'pdan-ko'p bosqinchilik va shafqatsizliklarni boshidan kechirdi. Shu sababdan shahar xalqi ozodlik va mustaqillik yo'lida uzoq yillar qahramonona kurash olib bordi. Toshkent qulay geografik o'rinda joylashganligi bois doim o'zga davlatlarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Shahar tashqi dushmanlardan saqlanish uchun o'sha davrlardayoq devor bilan o'rab olingan edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, IX asrdayoq Toshkent uch qator aylanma devor bilan qurshab olingan.

Husniddin Nurmuhammedovning «Toshkentning qadimgi darvozalari» deb nomlangan asarida Toshkent devori haqida quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan: «XVIII asrning oxirlarida shahar mudofaa devorining balandligi salkam 8 metr, tepa qismining kengligi 2 metrgacha bo'lgan. Devor aylanasing uzunligi 18,2 km., shaharning umumiy maydoni esa 26,4 kv. km.ni tashkil etgan».

To'xtovsiz urushlar natijasida shahar devori yaroqsiz holga kelib, qayta qurishni talab qilgani bois XIX asrning o'rtalarida Toshkent shahrining beklar begi shahar devorini qaytadan ta'mirlatadi. Bu vaqtda devor balandligi 10 metrdan oshib, devorning yuqori qismida dushmanga o'q otish uchun ko'plab shinaklar ochilgan edi. Shahar mudofaa devorining 12 ta darvozasi (Taxtapul, Labzak, Qashqar, Qo'qon, Qo'yimas, Besh-yog'och, Kamolon,

Samarqand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy) va ikkita qof-qasi (ya'ni, 1 nafar otliq kirib chiqadigan tuynukchasi) bo'lgan.

Bu 12 darvozaning hammasi katta yo'l ustida qurilgan bo'lib, darvozalar mustahkam, qattiq yog'och - tog' archasidan yasalgan va ust tomoniga naqshinkor bezaklar berilgan. Har bir darvozada juft xalqalar va kalitlar bo'lgan. Kalitlar darvozabonlar qo'lida saqlangan. Darvozabonlar darvozani tongda ochib, quyosh botganda berkitganlar. Darvoza yopilgandan so'ng, uni ochishga hech kimning haqqi bo'lmagan. Faqatgina shahar hokimining o'ta zarur farmoyishi bo'lgandagina darvozani ochishga ruxsat berilgan. Darvozadan ichkariga kirganda uzun yo'lak bo'lib, uning ikki tomonida hujralar joylashgan. Hujralarning biri ovqatlanish joyi bo'lsa, ikkinchisi dam olish xonasi bo'lgan. Darvozabonlar vaqti-vaqti bilan almashinib navbatchilik qilganlar. Shaharning o'n ikki darvozasi ortida hayot qizg'in davom etgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, shaharda bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Bu yerda yong'oq, olma, nok, shaftoli, uzum yetishtirilgan. Shaftolining shunday bir mashhur navi bo'lganki, uning bir donasidan bir piyola sharbat chiqqan. Yong'oqning, ayniqsa, g'alvir deb nomlangan navi ko'p bo'lib, uning mag'zi ko'rinib turgan. Toshkent o'zining ajoyib manzarasi va gullari bilan ham ajralib turgan. Gullar orasida, ayniqsa, Toshkent lolasi mashhurdir. Lolaning bu navi sakkiz, o'n ikki yaproqli bo'lib, ular bir-biriga o'xshamaydigan turli ranglar bilan qoplangan.

Tarixchi Hamid Ziyoevning «Tarix - o'tmish va kelajak ko'zgusi» asarida 1741 yili Toshkentga kelgan tatar savdogari Shubay Arslonovning Toshkent haqidagi ma'lumotlari keltirilib, shaharning o'sha davrdagi tashqi va ichki manzarasi quyidagicha tasvirlanadi: «Toshkent shahri qalin paxsa devor va zovurlar bilan o'rab olingan. Shahar kattaligi jihatidan Qozon shahriga teng keladi. Uning o'n ikki darvozasi bor. Bu yerda imoratlar tartibsiz holda paxsa devor bilan qurilgan. Shaharda bog' va masjidlar ko'p. Katta masjidlarda

ko'pchilik bo'lib namoz o'qiganlar. Darvozalar oldida alohida mirshablar turadi. Ularda to'p yo'q, uzoqqa otadigan miltiqlar bor. Bunday miltiqlar Toshkentda yasaladi. Shaharni o'n ikki kishidan tashkil topgan kengash boshqargan. Hukumat qarorgohi Ko'kcha darvozasi yonidagi qal'ada ish yuritadi. Toshkentdan Turkistongacha bo'lgan yo'lni yuk karvoni olti kunda bosib o'tgan. Irgiz daryosidan Ufagacha uch kun, Buxorogacha o'n kun, Balxga yigirma kun, Badaxshongacha o'n besh kun yurilgan».

1865 yil 16 iyunda chor Rossiyasi qo'shinlari shaharni bosib olgandan so'ng, o'n ikki darvozaning ramziy oltin kalitlarini general Chernyaev 1865 yilda Peterburgdagi harbiy muzeyga topshirgan. Kalitlar 1933 yil 14 iyunda O'zbekistonga olib kelinib, O'zbekistonning Moskvadagi doimiy vakili Muhiddin Tursunxo'jaev tomonidan qabul qilingan va ular yodgorliklarni saqlash qo'mitasining raisi Nizomiddin Xo'jaevga topshirilgan. Bu haqdagi dalolatnoma O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda. Nizomiddin Xo'jaev tashabbusi bilan kalitlar ustida tekshiruvlar o'tkazilganda, taxmin qilinganidek, kumushdan yasaliib, ustiga oltin suvi yuritilgan bo'lmay, balki sof oltindan yasalganligi aniqlangan. Hozirda bu kalitlarning o'n bittasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida saqlanayotgan bo'lsa, bittasi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida ko'rgazmaga qo'yilgan. Bu kalitlarning har birida yasalgan vaqti (hijriy 1282 yil) va darvozalar nomi yozib qo'yilgan.

Shunisi e'tiborga molikki, barcha darvozalarning chiqaverishida qabristonlar bo'lib, ularning aksariyati hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Ba'zilaridan bugungi kunda hozir ham foydalaniladi. Bu qabristonlarga shahar mudofaasida qahramonona kurash olib borgan yurtning mard o'g'lonlari dafn etilgan.


SHaxrimizning qoq markazida eski juva bozorining oldida shaxrimizning eski qismi saqlanib qolgan. SHu joyni ko'zdan kechirsak ota bobolarimiz qanday yashashkanini guvoxi bo'lamiz Pasqam uylar deyarli ko'cha tomonda umuman deraza yo'q . Sinchli

qo'sh sinchli paxsali uylardan iborat. Eshiklari kichkina tor labirint ko'chalarni ko'rishimiz mumkin .

Uy ichiga kirsak temirbeton konstruksiyalari o'rniga xoda va yog'ochlar ishlatilgan. Uy o'zgach bir sharqona yo'nalishda qurilgan .

Paxsa va sinchli turar joy binolari asosan tuproq va yog'ochdan iborat bolib ustki qismi somon suvoq bilan suvalgan . Devorlarning asosi , ya'ni poydevori yog'ochdan bo'lgan tekis taksinch bo'lib u gorizantal tarzda qamish va somon ustiga yotqizilgan .


Ushbu tarzda jixozlanishi ikki maqsadni kozlagan ; birinchidan qamish yogochni namlikdan ximoya qilgan ,somon esa oet sinchga zilzila vaqtida elastic ost elastic vazifasini otagan .



Ananaviy uylarda bir necha ichkari –tashqari xovli barpo qilingan va ular yoz sharoitlarida otirish qulay salqin ayvonlar bilan jixozlangan . Tomlar garizantal tarzda tekis qilib ishlangan . Ular tuproq , qum va somon aralashmasidan iborat bilan suvalgan . xuddi shuningdek uningdek loysuvoq bilan uylarning devoir suvalgan . Bu ishlar tomsuvoqlar va devorsuvoqchi ustalar tomonidan bajarilgan . SHunday qilib , keyinchalik ananaviy loy tomli uylar ustiga tunika tomlar jixozlangan {bu kopgina mamlakatlarda kuzatiladi }. Bu shaxarning tarixiy va estetik

korinishini ozgartiradi. Xuddi shunday tarzda yangi qurilayotgan uylarning old tomlari odatga kora gishtli qoplama {sanoitga oid} yoki beton bloklardan qoplami qilyapti .





Bobir

ASOSIY QISM

Uylarning xozirgi xolati

Men taklif qilyotgan uylar katta ko'chadan uncha uzoq bo'lmagan Chuvalachi ko'chasida joylashgan. "Chuvalachi ko'chasidagi 25 25^a 27 uylari". Bu uylar Chuvalachi ko'chasining qayrilish qismida joylashgan.


25 – xonadon kirish qismi kichkinagina xovli ham unchalik katta emas kiraverishda o'ng tomonda ayvon joylashgan to'g'risida yashash xonalari joylashgan. Xonalarga kirishda xoll xollning ikki tomonida ikkita xonalari mavjud. Uylari ancha eski, tomlari past xovli tomondagi oynalar xam deyarli erga yaqin joyda joylashgan. Uy yaroqsiz ammo uy egalari noiloj istiqomat qilishmoqda.





25^a – xonadon bu xonadonga tupik ko'cha orqali boriladi , 25^a – xonadon kirish qismi kichkinagina xovli ham unchalik katta emas , bu uyda Bobir


yashovchi oila yaqinda ko'chib kelgan . Kirish qismining chap tomonida joylashgan uyni buzib o'rniga yangi ikki xonali uy qurishgan . O'ng tarafidagilari o'z o'rnida turibdi uyning egalari o'ng tarafdagi uylarni ham buzib tashlamoqchi va o'rniga boshqa uy solmoqchi bu uylar oshxona s/u va dush joylashgan ..





Bobir

27 – xonadon bu xonadon boshqa uylarga nisbatan ancha kattaroq kirish qismi darvoza orqali kiriladi o'ng tomonda yashash uylari joylashgan bu uylar hozirda tamirlashga muhtoj ahvolda qolgan kiraverishda to'g'risda ayvon bor, uni yonida birlashib ketgan oshhona bor. Uyning umumiy maydoni 3 soth bo'lib burchakda joylashgan.





Bobir

Chet ellik mexmonlar uchun Toshkent va uning tarixi ularga shubxasiz juda qiziqdir.

Shu sababli sayoxlar uchun shart – sharoyitlarni yaxshilash lozim . Toshkent ko'rkini buzib turgan bunday uylar “xaroba uylar” ni o'rniga sayyoxlar uchun mexmonxona yoki eski shaxar axolisi uchun turar –uyalar qurilish lozim . Albatta Tashkenyt shaxri eski shaxar qismidagi shart sharoyitlarni xisobga olgan xolda .

Man taklif qilayotgan loyixa “Xaroba uylar “ o'rniga asosiy kirish qismi xovli qismi va turar uylar qismini alo darajada restavratsiya qilinadi .

Uy ikki qavatli bo'lib poydevorini temirbeton konstruksiyasi bilan mustaxkamlanib ikkinchi qavat mustaxkamligini taminlash uchun poydevordan temirbeton yuk ko'taruvchi ustunlari ko'tariladi . So'ng rigl yotqiziladi va orayopmalarni yog'och konstruksiyalardan foydalanib yopiladi . Keyin kartonlar bilan to'ldirilib ustidan lo'mboz yopiladi . So'ng strapl tashlanadi keyin uni ustidan abreshotka qoqiladi . Tom yopish uchun tunka materialidan foydalanamiz. Tom qiyaligi 12° da yopiladi .

Man taklif qilayotgan loyihaaning xonalari qulay joylashgan bo' lib xonadon egasiga kerakli bo'lgan barcha xonalar mavjud. Bizga malumki o'zbek oilasi ko'p farzandli bo'lib ikkta oila yashasaham bo'ladi. Bu loyihaaning xovliga kirish qismi ikkta bo'lib ikalasiga ham darvozaxona orqali kiriladi darvozaxona katta va keng bo'lib yozda bemalol so'ri qo'yib salqin bo'lgan darvozaxonaga xordiq chiqarib dam olsa bo'ladi.Loyihamning xovlisida manzarali gullar yozda dam olib choy ichishga mo'ljallangan Bissetka va qishgi bog' mavjud.Uy devorlari g'ishtdan eshik romlar pol pataloklar yog'ochdan bo'lib milliy va omaviy zamonaviy uslubda qurulgan.



KONSTRUKTIV BO'LIM

Konsultant:

Yusufxodjayev S. A.

Raxbar:

Po'latov X.

Bitiruvchi:

Hasanov B. D.



Bino konstruksiyasi

Qadimgi obodalar konstruksiyalarning asosiy xususiyatlari va zilzilabardosgliligi

Qadimda xali temir – beton elementlari kashf qilinmagan bir vaqtda xam bobokalonlarimizning qurgan binolari , obidalar o'ziga xos tarzda mustaxkamlikka ega bo'lgan . Asrlar osha bizning davrimizgacha etib kelgan arxitektura yodgorliklari qadimgi binokor va memurlarning yuksak aql zakovati , bilimdonligidan dalolat beradi . Shu o'rinda biz Amir Temur soxibqironnnig quyidagi so'zlatini keltirib o'tishimiz mumkin “agar bizning kuch qudratimizga shubxangiz bo'lsa , biz qurgan imoratlarga boqing “.

Qadimda yashab ijod etgan binokor ustalar faqatgina boy tajribaga asoslanib qolmay , memorchilikning osha davrida mavjud bo'lgan nazariy g'oyalarga xam suyanib ish tutganlar. Qadimiy memoriy obidalar bunyod etilishidan ilgari ularning loyixasi chizilgan va loyixa quradigan usta muxokamasidan o'tgan .

Doim xavf solib kelgan zilzila daxshati O'rta Osiyo memurlari diqqat etiboridan chetta qolmagan , albatta . Shu kungacha saqlanib qolingani tarixiy obidalarimiz bunga yaqqol misoldir . Xaqiqardan xam qadimgi memorchiligimiz zilzila kuchlarining g'ishtlarning o'lchamlari xam inshoatdagi kuchlanishlarning kesim bo'yicha tekis tarqalishini taminlagan , chunki g'ishtlarning kvadrat bo'lgan .

Bobakalon memorlarimiz elastic qurilish materiallari va konstruksiyalari inshoatlari sesmik mustaxkamlikning taminlovchi eng yaxshi chora chora deb xisoblangan . Bu esa albatta o'z navbatida qurilish qorishmasi sifatida ganch va loydan foydalanishga , poydevorlarining maxsus konstruksiyalarini ishlab chiqishga xamda devorlarning sokl qismida qamish tasmalari qo'llanilishiga olib kelgan .

Pishiq g'isht terishda asosan soz tuproqdan tayyorlangan loy xamda ganch qorishmasi qo'llanilgan . Ganch qotuvchan bo'lganligi uchun qurilishning o'zida oz-ozdan tayyorlangan . G'isht terishda ganch xech qachon sof xolda ishlatilmagan . Unga albatta soz tuproq yoki qum qo'shib ishlatilgan . G'isht terishda yirik donali ganchdan foydalanilgan . Yirik donali ganch sekin qotadi . Bu esa albatta , mustaxkamlikning ortishiga olib keladi . Qadimgi ustalar fikrigacha ganch o'zining to'liq mustaxkamligiga bir yil moboynda erishar ekan .

Qadimgi memorlar elastik va qayishqoq qorishmalar g'isht konstruksiyalarini zilzila tasirida asrovchi eng yaxshi chora deb bilib , devor choklarida uning qalinligini kattaroq olishga xarakat qilishgan . Odatda pastki qismida qorishma qalinroq , taxminan 5sm atrofida olingan , devor ko'tarilgan sari qorishma qalinligi xam kamayib brogan .

Shuning uchun xam Markaziy Osiyoning monumental binolarida ganch qorishmasining xajmi umumiy devorlari xajmining deyarli 30% ni tashkil etadi .

X- XVII asrlarda bunyod etilgan monumental g'ishtin binolarning deyarli xammasida poydevor ostida malum qalinlikda sof loy qatlami yostiq to'shalgan .

Qadimiy binolarda ikki xil poydevor qollanilgan :

- Eni sokl eniga teng va o'zgarmas bolgan pydevor bolgan
- Eni pastga tomon kengayib boradigan poydevor

Bundan tushadigan og'irlik va sodir bo'ladiga bo'ladigan kuchlar va ta'sirlar o'ziga qabul qiladigan qiladigan binoning er ostidagi qismiga **poydevor** deb ataladi

Poydevor quyidagi talablarga javob berishi kerak :

- Mustaxkamlik ;
- Ustuvorlik ;
- Uzoq muddatga chidamlilik ;
- Sovuqqa chidamlilik ;
- Industrial talablar;
- Iqtisodiy talablar;

Poydevorning konstruksiyasi va unga ishlatiladigan materiallar poydevor qanday chuqurlikda ishlab chiqarilishi ; poydevorga tushadigan kuchlarning miqdori va xarakteriga ; binoning turiga; konstruktiv xususiyatlariga; yondosh binolarning poydevorlarga; er osti injiner komunikatsiyalarning joylashishiga ; qurilish maydonchasining tabiiy sharoyitlariga; qurilish maydonchasining tabiiy sharoyitlariga; gruntning muzlash qalinligi ; sizot suvlarining bor yo'qligiga va boshqa shariyitlarga bog'liqdir .

Poydevorning tubiy yoysimon , qabariq shaklida ishlangan . Qabariq poydevorning loydan tayyorlangan yostiqaqqa osonroq joylashuviga imkon berib , inshoatning bir tekis chokishini taminlaydi.


Poydevor qalinligi er sirtiga egtganda , poydevor bilan sokl orasiga kuchsiz loy qorishmasida yoki toza tuproqning o'zida binoning butun perimetri bo'ylab, bir qator g'isht terilgan . Shuningdek zilzila kuchini sindirish maqsadida binolarning sokl qismiga qamish qatlami xam yotqizligan . Bunda soklning er sirtiga chiqqan 8-10 sm qalinlikda , devor sirtiga tik yo'nalishda qamish bostirilgan . Qamish qatlami ustiga yana qorishma quyib , uning ustiga keyin g'isht terilgan. Qamish er sirtidan yuqorida joylashganligi uchun . Soklda joylashgan qamish qatlami amortizator vazifasini bajaradi .

Bobir

Seysmik to'liqlar garizantal tashkil etuvchilarning shiddatkor ta'siridan binolarni yana o'sha qamish qatlami xamda sokol va poydevor orasiga yotqizilgan qumoq tuproq yoki o'ta kuchsiz loy yotqizig' I asraydi.

Tuproq yotqizig'I poydevorni binoni ostidan siljishiga yo'l qo'yadi . Bu siljish esa bino devorlariga zarar etkazmagan xolda seysmik kuchlarning quvvatini qirqadi .

Qadimgi binokor bino iqlim sharoyitini xam to'liq xisobga olgan.



Qurilish konstruksiyasining kuchaytirish asosiy prinsplari

Qurilish kanstruksiyalarini kuchaytirish uchun u yoki bu usulni qo'llash , bino rekanstruksiyasining texnik vazifasiga bog'liq . Unga xajmiy –rejaviy echimning mumkin bo'lgan o'zgarishlari , yuklari va eksplitatsiya sharoyiti kiradi .

Qurilish konstruksiyalarining kuchaytirishning oqilona variantini tanlash ularni xaqiqiy ish tavsilotini va qanday yuklari ta'siri ostida

bo'lishini aniqlash muximdir . Masalan mavjud ustunning deformatsiyalangan sxemada xisoblash uning xisobiy yuk ko'taruvchanligi oshirish imkonini berdi . Shu maqsadga yig'ma rigellarni , orayopmalarni , tomyopmalarni ,va umuman qurilish konstruksiyalarini birga ishlanishi xisobga olish orqali bunga erishish mumkin .

Mavjud konstruksiyaga tushadigan yukni aniqlashda texnologik qurilmaning va qurilish materiallarining xususiy og'irligi xaqidagi malumotlardan foydalanish lozim , chunki bu kattaliklarning yangi qurilayotgan inshootlarni loyixalash uchun meyorlashtirilgan qiymani qabul qilish , xaqiqiy tasir etuvchi yukni anchagina oshirishga va buning natijasida ortiqcha xarajatlarni ko'paytirishga olib keladi.

Tekshiruv xisoblarini bajarishda po'lat va betonning mustaxkamlik tavsilotlarini xisobotlari xisobga olish qurilish materiallaridan va ortiqcha ishlarning kamytirishning ma'lum zaxirasi xisoblanadi . Bunda materiallarning xaqiqiy mustaxkalik tavsilotlardan foydalanish ayrim konstruksiyalarning va umumiy inshootning eksplutatsion ishonchliligiga zarar etkazmasdan amalga oshirish lozim .

